

## FUTBOLGA O'RGATISH VA SHUG'ULLANTIRISH VOSITALARI.

*Choriyev Dilshod Ismat o'g'li*

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2 bosqich doktoranti  
[dilshod\\_choriyev@inbox.ru](mailto:dilshod_choriyev@inbox.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'smir yoshdagi futbolchilarни tayyorlashning asosiy vazifalari ularga qo'yiladigan talablar, vazifani amalga oshirish uchun to'g'ri tanlagan va qo'llaniladigan harakatlar va metodlar aks etgan. Tayyorlashning vazifalaridan kelib chiqib maxsus va nomaxsus, to'p bilan to'psiz bajaradigan imtimiy va maxsus tayyorgarlik mashqlari keltirib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье описаны основные задачи подготовки юных игроков, требования к ним, действия и методы, которые правильно выбираются и используются для реализации задачи. Исходя из задач подготовки даны специальные и неспециальные, обще- и специальные тренировочные упражнения, выполняемые с мячом и без него.

**Annotation:** This article describes the main tasks of training youth players, the requirements for them, the actions and methods that are correctly selected and used for the implementation of the task. Based on the tasks of preparation, special and non-special, general and special training exercises performed with and without a ball are given.

**Kalit so'zlar.** Jismoniy mashq, tayyorgarlik, texnika, o'rgatish va shug'ullantirish, o'quv mashg'ulot, rejalashtirish, yuklama.


**Ключевые слова.** Упражнение, тренировка, техника, тренировка и упражнение, тренировка, планирование, нагрузка.

**Keywords.** Exercise, training, technique, training and exercise, training, planning, loading.

### **KIRISH.**

Futbolchilarни tayyorlashning asosiy vositasi jismoniy mashqlar bo'lib, ular qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun uslubiy jihatdan to'g'ri tanlangan va qo'llaniladigan harakatlarni aks etadi. Futbolning xususiyatlari va tayyorlash vazifalaridan kelib chiqqan holda, barcha asosiy vositalarni maxsus, ya'ni to'p bilan bajariladigan mashqlar va nomoxsus ya'ni to'psiz bajariladigan mashqlarga bo'lish mumkin.[1] Futbolchilarning mashg'ulotlarida qo'llaniladigan maxsus mashqlar ikki guruhdan iborat: musobaqadagi va maxsus. Musobaqa mashqlari - bu futbol o'yinini tashkil etadigan va futbol musobaqalari qoidalariiga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan harakatlarning to'plami. Ular asosiy jismoniy sifatlarning birgalikda namoyon bo'lishini, taktik vaziyatlarning doimiy va to'satdan o'zgarishi sharoitida texnika usullarini jamlab ularidan foydalanishni aks ettiradi. Shakli jihatdan musobaqa mashqlari rasmiy, nazorat, o'rtoqlik, ikki tomonlama o'quv o'yinlarni, shuningdek mini-futbol o'yinlarini o'z ichiga oladi. Maxsus mashqlar - bu musobaqa mashqlari elementlari va ularning variantlaridan iborat harakatlardir. Ular asosan texnik-taktik takomillashish va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan.[2-3]

1-jadvalda futbolchilarni tayyorlashda ishlataladigan vositalarning tasnifi ko'rsatilgan.



Maxsus mashqlarda to'p bilan bajariladigan individual va guruh mashqlar (zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish, juftlikda va uchliklarda o'zaro harakatlar va boshqalar), shuningdek o'yin mashqlari (turli xil "kvadratlar", to'pni ushlab turish va hokazolar) kiradi. Maxsus mashqlarning afzalligi shundaki, ularning ta'siri musobaqa mashqlariga qaraganda ta'sir me'yorini maqsadli va samaraliroq aniqlash va boshqarishga imkon beradi. Nomaxsus mashqlar ikki guruhni o'z ichiga oladi: umum tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik.

**Umum tayyorgarlik mashqlari** - bu asosan futbolchining umumiyligi tayyorgarligida qo'llaniladigan harakatlar vositasi. Ular yordamida har tomonlama jismoniy tarbiyalash, asosiy jismoniy sifatlarga alohida ta'sir ko'rsatish, koordinatsiya qobiliyati, harakat ko'nikmasi va malakasini yaxshilash vazifalari amalga oshiriladi. Umum tayyorgarlik mashqlaridan faol dam olish va tiklanish vositasi sifatida ham foydalanish mumkin.[4-5] Va nihoyat, ob'yektiv sharoitlar (iqlim omillari, shikastlanishlar va boshqalar) maxsus vositalardan foydalanishni imkonini bermasa umum tayyorgarlik mashqlari yuqori jismoniy va ruhiy ish qobiliyitini saqlab qolishga yordam beradi. Tegishli mashqlar har hil sport turlaridan, sport va harakatli o'yinlardan tanlab olinadi va umum rivojlantiruvchi mashqlar bilan to'ldiriladi.

**Maxsus tayyorgarlik mashqlari** - bu shakli, tuzilmasi hamda jismoniy va ruhiy sifatlarini namoyon etish harakteri bo'yicha maxsus mashqlarga ko'p jihatdan o'xshash harakatlardir.

**O'rgatish va shug'ullantirishni tashkil etish shakllari.** Sport zaxirasini tayyorlashdagi barcha bo'linmalarda o'quv-mashg'ulot jarayoni nazariy va amaliy mashg'ulotlarni, taqvim musobaqalarini, o'quv va nazorat o'yinlarini,

individual rejalar bo'yicha mashg'ulotlarni, o'quv-mashg'ulot yig'inlaridagi mashg'ulotlarni, tarbiya-profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'z ichiga oladi. O'quv mashg'ulotlarini tuzishda asosiy mezon bu bolalarning yoshi va tayyorgarligidir[4-5]. Futbolchilarni o'rgatish va tayyorlashni tashkil etishning asosiy shakli - bu o'quv mashg'ulot jarayonining didaktik tamoyillari va uslubiy qonunlariga muvofiq tashkil etilgan o'quv mashg'ulotdir (O'M). O'quv mashg'ulotiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'M ta'siri keng qamrovli bo'lishi kerak - tarbiyalovchi, sog'lomlashtiruvchi va ta'lim beruvchi.
2. O'M tarkibi shug'llanuvchilarning yoshi va individual xususiyatlariiga, tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda aniq vazifalaridagi talablarga javob berishi va bilim, malaka va ko'nigmalar doirasini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
3. O'M jarayonida o'rgatish va takomillashtirishda turli xil usullar va uslubiyatlar qo'llanilishi kerak, bu vazifalarning doimiy murakkablashishi, oldiga siljish dinamikasi va moslashish jarayonlari bilan bog'liqdir.
4. Har bir alohida O'M ilgarigi va keyingi mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lanishi kerak.

#### ***O'M tarkibi uchta qismdan iborat:***



*Tayyorgarlik qismida* (chigalyozdi mashqlar) shug'llanuvchilar bilan mashg'ulotning boshlang'ich qismi tashkil etiladi, vazifalar tushuntiriladi va mashg'ulotning mazmuni qisqacha ochib beriladi. Tayyorgarlik qismining asosiy maqsadi organizmni oldinga qo'yilgan asosiy faoliyatga funksional tayyorlashdir, shuning uchun koordinasion tuzilmalar va yuklama harakteri bo'yicha qo'llanilayotgan vositalar asosiy qismdagi mashqlarning xususiyatlariaga mos kelishi kerak. Tayyorgarlik qismining davomiyligi umumiy vaqtning taxminan 15-20% ni tashkil qiladi[6].

Asosiy qism texnika va taktikani o'rgatish va takomillashtirish, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan O'M vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan. Bunda, vazifalar umumiy qabul qilingan atamalar yordamida aniq ifodalanadi va vazifalar soni ikki yoki uchtadan oshmasligi kerak.

#### ***Asosiy qismini tuzishda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:***

1. O'quv vazifalari, tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik, kuch sifatlarini rivojlantirish asosiy qismning birinchi yarmida amalga oshiriladi.
2. Chidamlilikni takomillashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar asosan asosiy qismning ikkinchi yarmida amalga oshiriladi.

3. O'Mdagi yuklama dinamikasi to'lqin sifat bo'lib, asosiy qismning o'rtaida eng yuqori darajaga chiqadi.

Asosiy qismning davomiyligi mashg'ulot hajmining umumiy miqdoriga bog'liq bo'lib, odatda umumiy vaqtning 70-80% ni tashkil qiladi.

**Yakuniy qism** O'M yuklamasining asta-sekin pasayishini ta'minlashi va yosh futbolchilarning organizmini nisbatan tinch holatga keltirishi kerak. O'M so'ngida xulosa chiqarilib, individual topshiriqlar beriladi.

Yakuniy qismga umumiy vaqtning 5-10% ajratiladi.

Futbolchilarni tayyorlashda maqsad va vazifalarga qarab kompleks va tematik mash'ulotlardan foydalaniлади.

**Kompleks** mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida bir nechta tayyorgarlik vazifalarini bajarishga qaratilgan: jismoniy, texnik va taktik. Kompleks mashg'ulotlardan asosan yosh futbolchilarni tayyorlashda foydalaniлади.

**Tematik** mashg'ulotlar tayyorgarlikning jismoniy, texnik yoki taktik tomonlaridan birini chuqur o'zlashtirish bilan bog'liqdir.

O'M o'tkazishning tashkiliy shakli va uslubiy asoslari **guruh** va **individual** mashg'ulotlardir.

**Guruh mashg'ulotlari** alohida o'quv guruhi yoki jamoasi bilan o'tkaziladi. Futbolning jamoaviy o'yin ekanligi futbolchilar o'rtaida o'zaro harakatlanish talabining oshishini, jamoaviy vazifalarni amalga oshirish zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun o'rgatish va tarbiyalash jarayonida guruh mashg'ulotlari samaraliroq. Bu esa vazifalar hususiyatlarini va shug'llanuvchilarning tayyorgarligini inobatga olgan holda individuallashtirishga turki bo'ladi. Guruh mashg'ulotlarida shug'llanuvchilar turli xil tashkil qilish usullari bilan vazifalarni bajaradilar: frontal, kichik guruhlarda va individual. Frontal usulda bir xil vazifani bajarish taklif etiladi, uni hamma bir vaqtda bajaradi. Kichik guruhlarda (masalan, himoyachilar va hujumchilar) shug'llanuvchilar alohida topshiriq olishadi. Individual usulda alohida futbolchilar mustaqil topshiriqlar olishadi (masalan, darvozabon). Mashg'ulotlarni frontal usulda tashkil etish asosan o'quv jarayonida qo'llaniladi, chunki bu shug'llanuvchilar faoliyatini to'liqroq nazorat qilish va hatolarni to'g'irlashga imkon beradi. Biroq bunda, individual yondashish mushkul bo'ladi. Kichik guruhlarda va mustaqil mashg'ulotlarda nazorat qilish imkoniyati cheklangan, biroq individuallashtirish samaralidir. Individual mashg'ulotlarda futbolchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil vositalar va mashq usullari qo'llaniladi.<sup>[5]</sup> Mashg'ulotning maqsadi - sport mahoratini oshirish sur'atlarini tezlashtirishdir. Murabbiy va o'yinchi tomonidan birgalikda ishlab chiqiladigan mashg'ulotning aniq maqsadi va vazifalari individual rejalaridan olinadi. Individual mashg'ulotlar mustaqil va guruh shaklida o'tkaziladi.

### **Mashg'ulotning tuzilishi**

#### ***Qoidalar:***

- faqat yaxshi o'rganilgan harakatlar tez va aniq bajariladi - harakatlar soni oz, harakatni takrorlash soni esa ko'p bo'lishi kerak;

- topshiriqlarsiz mashg‘ulotlar juda kam yoki umuman bo‘lmasligi kerak;
- barcha futbol mashqlari maqsadli topshiriqlar bilan bo‘lishi kerak.

***Mashg‘ulot o‘tkazish taribi:***

1. Qizdiruvchi chigalyozdi mashqlari.
2. Standart mashqlar (taktikasiz, o‘yinchilar qayerga to‘p uzatishni bilishadi, asosan texnika).
3. Vaziyatli mashqlar (o‘yinchini o‘ylashga o‘rgatish).
4. O‘yin (erkin yoki maqsadli topshiriqlar bilan).
5. Jismoniy tayyorgarlik.
6. Tinchlantiruvchi, tiklovchi mashqlar.

***Qizdiruvchi chigalyozdi mashqlar:***

1. O‘yindan oldin.
2. Mashg‘ulotdan oldin.

***Qizdiruvchi chigalyozdi mashqlarining vazifalari:***

- fiziologik tomoni: mushaklar va paylarni tayyorlash;

***Qizdiruvchi chigalyozdi mashqlarning tuzilishi:***

1. Yugurish yoki o‘yin mashqlari - 10 daqiqa (maksimal).
2. Cho‘zilish mashqlari - 10 daqiqa.
3. Yugurish mashqlari (kichik qadam tashlab tez yugurish, tizzalarni baland ko‘tarib yugurish, boldirni orqaga-yuqoriga ko‘tarib yugurish va tezlashish - 15-20 metr; maksimal tezlik va sur’at. Yugurish paytida o‘yinchilarga yon atrofga qarash) - 5 daqiqa.

***Standart mashqlar:***

Harakatda juft, uchlik bo‘lib to‘pni uzatish (avval odatdagi tezlikda, keyin maksimal tezlikda). Kvadratlar (uzun, qisqa), romblar. joylarni almashtirgan holda - 3-5 mashqlar; ko‘p takrorlash. Vazifasiz mashqlar kam bo‘lishi kerak. Maqsadli vazifalilar bilan ko‘proq mashqlar. To‘p tezligini, trayektoriyasini, yo‘nalishini, shuningdek o‘yinchilarning harakat tezligini va yo‘nalishini tartibga solish.

***Vaziyatli mashqlar*** - o‘yin sxemalari yoki alohida o‘yin jarayonlari (qo‘yilgan vazifaga ko‘ra):

- hujumdag‘i mashqlar;
- himoyadagi mashqlari.

Jismoniy mashqlar maqsadli bo‘lishi kerak (darvozabon qo‘li bilan to‘pni o‘z zonasidan boshqa zonaga uzatish. Erkin zonaga uzatmalar, o‘yinchilarning mos harakatlanishi. Uzatmalar zich, keskin, to‘pning tezligi esa individual yuqori tarzda amalga oshiriladi. Sherik bo‘s sh zonani topishi kerak, to‘p bilan bo‘lgan o‘yinchidan uzoqlashishi kerak. Harakatlanayotgan o‘yinchiga to‘pni uzatish, bir joyda turgan o‘yinchiga to‘p uzatish mumkin emas. To‘p bilan bo‘lgan o‘yinchi to‘xtab, to‘pni kimga uzatishni ko‘rib olsa bo‘ladi. Qolganlar harakatlanib, pozisiya qidiradi). Mashg‘ulotlardagi mashqlar soni oz, ammo turli variantlar bilan har kuni takrorlash. Shug‘illanuvchi o‘yindan ko‘ra mashg‘ulot muhimroq ekanligini tushunishi kerak.

***O‘quv-mashg‘ulotlarning yuklamasini rejalashtirish***

---

Mashg‘ulot vositalarini tasniflashning eng muhim belgilari quyidagilarga bo‘linadi:

- ixtisoslik (mashg‘ulot vositalari musobaqa mashqlari bilan o‘xshash);
- yo‘nalishi (mashg‘ulotdagi mashqlarining u yoki bu harakat sifatini rivojlantirishdagi ta’sir darajasi);
- koordinatsion murakkabligi (mashqlarning murakkablik darajasiga qarab ularni guruhlarga bo‘lish);
- yuklama( hajmi va intensivligi).

***Mashg‘ulotning yuklamasini rejalashtirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak:*** - mashq davomiyligi; intensivligi; takrorlash soni; seriyalar soni; dam olish oraliqlari; dam olish xarakteri.

Parametrlardan birining o‘zgarishi mashg‘ulot yuklamasining kattaligiga va yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Mashq davomiyligi uni amalga oshirish vaqtini tavsiflaydi. Shuning uchun turli xil davomiylikka ega jismoniy mashqlar turli xil energiya mexanizmlari bilan ta’milanadi. Mashqlar intensivligi uni amalga oshirish paytidagi harakat tezligini tavsiflaydi. Fiziologik o‘zgarishning hajmi va tavsifi mashqni intensiv bajarishga bog‘liqidir. Odatda, intensivlik fiziologik ko‘rsatkichlarga ko‘ra qayd etiladi. Jismoniy mashqlar intensivligining eng oddiy o‘lchovi bu yurak qisqarish chastotasi (YQCH). Shuni esda tutish kerakki, yuklananing bir xil davomiyligi va o‘rtacha intensivligi, lekin doimiy ravishda bir marotaba yoki takroran bajarilganligi, har xil hajmdagi va yo‘nalishdagi tezkor mashg‘ulot samarasini beradi. Jismoniy mashqlar o‘rtasidagi dam olish vaqtlarining davomiyligi asosan yuklananing organizmdagi siljishlar hajmi va tavsifini aniqlaydi. Mashqning bir xil davomiylik va intensivlikda turli xil dam olish vaqtleri bilan bajarilgan mashqlarning mashg‘ulot samarasini turlicha yo‘naltirilgan bo‘ladi. Masalan, 10x30 metrga yugurish mashqi. Takrorlashlar orasidagi tanaffus 20 soniya bo‘lsa unda bu mashq tezlik chidamkorligi sifatini, tanaffus 1-1,5 daqiqa bo‘lsa – tezlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Urinishlar orasidagi dam olish oraliqlari ma’lum darajada tiklanish jarayonlariga ta’sir qiladi. Takrorlashlar orasidagi faol dam olish, tananing turli tizimlari ishlashini ma’lum darajada saqlab turishga imkon beradi, agarda bu mashqni bajarishga yetarlicha katta quvvat sarflansa. Agarda mashq qayta-qayta bajarilsa va yuklananing intensivligi katta bo‘lmasa, u holda dam olish oraliqlari passiv bo‘lishi mumkin. Mashqni takrorlash soni organizm javob reaksiyasing umumiyl hajmini aniqlaydi. Bir takrorlashdan keyingi takrorlashga qadar energiyani o‘z ichiga olgan moddalar (kreatinfosfat, glikogen) zaxiralari kamayadi va qon hamda mushaklardagi sut kislotasi konsentratsiyasi (4-5 takrorlashlarda) va kislorod qarzdorligi oshadi. Bunday sharoitda bajarish ayerob va anayerob funksiyalarga aniq aks etgan mashg‘ulot ta’sirini ko‘rsatadi. Mashqlarning kordinatsion murakkabligi - mashqni bajarishda organizmning funksional tizimlarining ishlashiga ta’sir qiluvchi omildir (jadval. 2).

2-jadval.

***Muayyan mashqlarni murakkablik bo‘yicha tasniflash.***

Qiyinchilik belgilari	Mashqlar
-----------------------	----------

<https://tiiamebb.uz>

<https://uz-conference.com>

	murakkab	oddiy
O‘quv mashqlari maqsadini o‘yin maqsadiga mosligi	Aniq maqsad bor: a) golli vaziyatni yaratish va uni yakunlash - hujum mashqlari uchun; b) hujumni buzish va qarshi hujum tashkil etilishi - himoya mashqlari uchun.	Oraliq maqsadlarning mavjudligi: - aniq uzatmani amalgaloshirish; - to‘pni egallab olish; - yakkakurashni yutish va hokazo.
Taktik qarorlarning ko‘lamni va ko‘p qirraliligi	Bir mashqda ko‘plab murakkab va turli taktik variantlar	Mashq qilishda 1-2 aniq taktik qarorlar
Texnik-taktik harakatlarning hajmi va ko‘p qirraliligi	Ko‘p turli texnik-taktik harakatlar	Texnik-taktik harakatlarning bir xilligi (faqat uzatmalar)
Jismoniy mashqlarni bajarish tezligi	Maksimal (o‘yin)	Maksimal emas
Qarshilik	Faol	Yo‘q yoki passiv
Mashqga jalb qilingan futbolchilar soni	Ko‘p	Kam
Maydon o‘lchami	Katta	Maydonni $\frac{1}{4}$ qismidan kam
Mashq qilish shartlari	Turlicha	Qulay
Charchoq	Sezilarli	Kichik
Qiyinchilik belgilari	Mashqlar	
	murakkab	oddiy
O‘quv mashqlari maqsadini o‘yin maqsadiga mosligi	Aniq maqsad bor: a) golli vaziyatni yaratish va uni yakunlash - hujum mashqlari uchun; b) hujumni buzish va qarshi hujum tashkil etilishi - himoya mashqlari uchun.	Oraliq maqsadlarning mavjudligi: - aniq uzatmani amalgaloshirish; - to‘pni egallab olish; - yakkakurashni yutish va hokazo.
Taktik qarorlarning ko‘lamni va ko‘p qirraliligi	Bir mashqda ko‘plab murakkab va turli taktik variantlar	Mashq qilishda 1-2 aniq taktik qarorlar
Texnik-taktik harakatlarning hajmi va ko‘p qirraliligi	Ko‘p turli texnik-taktik harakatlar	Texnik-taktik harakatlarning bir xilligi (faqat uzatmalar)
Jismoniy mashqlarni bajarish tezligi	Maksimal (o‘yin)	Maksimal emas
Qarshilik	Faol	Yo‘q yoki passiv

Mashqga jalb qilingan futbolchilar soni	Ko‘p	Kam
Maydon o‘lchami	katta	Maydonni ¼ qismidan kam
Mashq qilish shartlari	turlich	Qulay
Charchoq	Sezilarli	Kichik

Mashqni bajaruvchi futbolchilar soni va maydon o‘lchami o‘yin mashqlaridagi yuklamani tartibga soluvchi maxsus tarkibiy qismlardir. Ushbu tarkibiy qismlarning o‘zgarishi harakatli vazifalarning koordinasion murakkabligini, texnik-taktik mashqlarni bajarishda yugirib bosib o‘tiladigan uzunlik va masofani oshishiga yoki kamayishiga olib keladi. Mashg‘ulot vositalarini tanlash turlich bo‘lishi mumkin, muhimmi quydagilarni inobatga olish kerak.

Mashqlar shu tariqa tanlab olinadiki, ularning intensivligi o‘yinga yaqin bo‘lishi kerak.

**Quyidagi talablardan foydalanganda mashq intensivligini oshirish mumkin:**

*Amaliy tavsiyalar.*

- to‘pga tegishni cheklash;
- mashq bajariladigan maydon o‘lchamini kichraytirish yoki kattalashtirish;
- topni olib yurish sonini kamayitirish yoki ularni taqiqlash;
- mashqda qatnashadigan o‘yinchilar sonini ko‘paytirish yoki kamayitirish;
- aldab o‘tish sonini cheklash;
- o‘z zonasida uztmalar sonini cheklash;
- o‘yin kombinatsiyasini yakuňlash uchun vaqt cheklovini joriy etish va boshqalar.

Yosh futbolchilarni tayyorlashni rejalashtirishda qismlarning qiymatiga muvofiq yuklamani hisobga olish va tasniflash juda muhimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. T.2005. – B. 104.
2. А.К. Беляков Особенности подготовки юных футболистов Методическое пособие-М.:ФГБУ «Федеральный центр подготовки спортивного резерва», 2012. — 80 с.
3. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Ташкент Изд-во.Абу-Али-Ибн-Сино. – 2000 г. – с. 135.
4. Э.А.ЛунеговТехническая подготовка юных футболистов 10-12 лет Екатеринбург 2019.
5. Антипов, А.В. Эффективность методики развития скоростно-силовых способностей и выносливости у юных футболистов 12-14 лет в процессе годичного тренировочного цикла [Текст]/ А.В. Антипов // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2014. – №4. – С.37-39.

6. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
7. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
8. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
9. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
10. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
11. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
12. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
13. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
14. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
15. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб суфориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
16. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОФ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРӢ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
17. Фазлиев Жамолиддин, Тожиев Шерзод, & Холиқов Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>
18. J.Sh.Fazliev., Sh.M.Tojiev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. Uz-Conferences, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>
19. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G'О'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>
20. Khamidov, M. K., Juraev, U. A., Buriev, X. B., Juraev, A. K., Saksonov, U. S., Sharifov, F. K., & Isabaev, K. T. (2023, February). Efficiency of drip

irrigation technology of cotton in saline soils of Bukhara oasis. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012007). IOP Publishing.

